

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Fors tilida transpozitsiya usulida otlardan yasalgan
ko‘makchilar**

Bajardi: Filologiya (sharq tillari)
ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Isoqova Qizlarxon

Ilmiy rahbar: “Eron-afg‘on filologiyasi”
kafedrasi professori, fil.f.d. Quronbekov

Ishda fors tilida transpozitsiya usulida otdan yasalgan izofali ko‘makchilarning tarkibiy xususiyatlari, gap tarkibidagi sintaktik va semantik vazifasi, grammatik ahamiyati, qanday tartibda yasalganligi, iste‘mol doirasida tutgan o‘rni va nutqimizdagi ahamiyati va vazifasi o‘rganiladi.

Toshkent-2011

MUNDARIJA

Kirish.

Izofali ko'makchilarning o'rganilishi.....	6
1.Eron tilshunoslari tomonidan ko'makchilarning o'rganilishi va tasniflanishi.....	9
2.Rus va o'zbek eronshunoslar tomonidan izofali ko'makchilarning o'rganilishi va tasniflanishi.....	15

Birinchi bob.

Otdan yasalgan ko'makchilarning funksional xususiyatlari.....	23
1.1.Izofali ko'makchilarning gap tarkibidagi sintaktik-semantik vazifasi.....	23
1.2.Izofali ko'makchilarning ishlatilishi.....	27

Ikkinchi bob.

Otdan yasalgan ko'makchilarning tarkibiy xususiyatlari.....	29
2.1.Otdan yasalgan yasalgan ko'makchilar.....	29
2.2.Ravishdan va boshqa so'z turkumlaridan yasalgan ko'makchilar.....	30
2.3.Gibrid/ham ot ham ravish turkumiga oid bo'lgan so'zlardan yasalgan izofaliko'makchilar.....	32
2.4.Sof ko'makchilar bilan birgalikda ishlatiluvchi izofali ko'makchilar....	34
2.5.O'z va o'zlashgan ko'makchilar.....	35
Xulosa	41
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	42

Ilm o'rgan ilmda ko'p sir,
Yopiq eshiklarni ochar birma-bir.

(N.Ganjaviy)

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin, O'zbekiston jahonga yuz tutib, tobora yuksalish, yangilanish jarayoniga kirib kelganligi, fan va madaniyatning millat manfaati uchun xizmat qilmaydigan mafkura iskanjasidan qutilganligi olimlarimiz oldiga g'oyat muhim va kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Istiqlol tufayli nafaqat ajdodlarimiz merosiga, balki qardosh xalqlar merosiga, fanning zamonaviy muhim muammolariga dadilroq yondashish, zamondoshlarimiz ijodi bilan bir qatorda turli xalqlarning ilm-fan va madaniyati yutuqlarini teranroq tadqiq etishga va hayotimizga tadbiiq etishga ya'ni jamiyatimizning barcha jabhalarini yanada rivojlantirishga imkoniyatlar kengaydi.

Mamlakatimizning ilmiy salohiyatining ildizlari nihoyatda chuqur va baquvvatdir. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Mubolag'asiz aytish mumkinki, fanimiz, aql-zakovat salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga, bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor qo'yilgan edi. Mamlakatimizning fan va madaniyati juda qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. U asrlar davomida o'zbek millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o'rganishda, tibbiyot, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda ishonchli xizmat qilib kelmoqda"¹.

Demak, chuqur ildizlarga ega bo'lgan tilshunoslik fani yurtimizda yuzaga kelgan yangi tarixiy voqe'lik munosabati bilan hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarni faqatgina ozod xalq manfaati, milliy istiqlool g'oyasi talablari

¹Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: "Ўзбекистон", 1997. Б.259

darajasida tahlil va tadqiq etishga ma'suldir. Bu esa tadqiqotchidan tanlagan muammolarning muhimligi, dolzarbligi hamda tadqiq etish usullarining yangiligiga ko'ra jahon andazalari bilan mos kelishi va ayni chog'da milliy o'zligiga xosligini to'la namoyon eta olishini talab etadi. Shu ma'noda mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq, butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga, ularni saviyasini oshirish va qo'llab quvvatlashga muhtaram yurtboshimiz I.A.Karimov tomonlaridan nihoyatda katta e'tibor qaratila boshlandi. Bu borada yurtboshimiz quyidagi fikrni bildirib o'tadilar: "Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda, men jahon tajribasi va hayotida o'zini ko'p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvafaqqiyatli ravishda, amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi "portlash effekti"ga, ya'ni yangi ta'lim modelining kuchli samarasiga erishamiz"².

TADQIQOTNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Bitiruv Malakaviy Ishimizning aslida bosh maqsadi, o'z bilim va malakamizni oshirish va mukammallashtirishdir, ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda, tadqiqot davomida, fors tilida transpozitsiya usulida otdan yasalgan izofali ko'makchilarning tarkibiy xususiyatlarini, gap tarkibidagi sintaktik va semantik vazifasini ya'ni, grammatik ahamiyatini, qanday tartibda, yasalganligini, iste'mol doirasida tutgan o'rni va nutqimizdagi ahamiyati va vazifasini o'rganib, umuman olganda fors tilida otdan yasalgan izofali ko'makchilarning tasniflanishi va ayni paytdagi umumiy ahvolini aniqlash va tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

MAVZUNING DOLZARBLIGI.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Ma'naviyat nashriyoti. Toshkent.:2008. 63-bet

Ma'lumki jamiyatning "aloqa vositasi" hisoblanuvchi til, murakkab va bir-birini to'ldiruvchi ma'lum bir til hodisalardan iboratdir, shuningdek, til jarayonlaridagi yordamchi so'z turkumlari guruhiga mansub bo'lgan ko'makchiga boshqa so'z turkumlaridan ko'chish holati ham, qarama-qarshi va har xil nuqtai-nazarlarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi murakkab jarayonlardan biridir. Chunki, ko'makchilashayotgan so'zga nisbatan munosabat turlicha, masalan, Eron tilshunoslari tomonidan, **Fors tilida ko'makchilashish jarayoni yaxshi o'rganilmagan** va hali ham aniq bir yechim topganicha yo'q.

TADQIQOTNING MANBAI VA MATERIALI.

Biz BMI dagi izofali ko'makchilarning iste'molda qo'llanilishiga doir misol va namunalarni to'plashda Eronning buyuk hikoyanavislaridan biri Jalol Ole Ahmadning "پنج داستان"³, "سه تار"⁴ ("Panj doston", "Setor") kabi hikoyalar to'plamlaridan foydalanildi.

TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI.

Rus eronshunoslari Lazar Samoylovich Peysikov⁵ning, Yuriy Aronovich Rubinchik⁶ning va Eron dasturnavislaridan Ali Akbar Dehxudo⁷ va boshqalarning, o'zbek eronshunoslaridan ustozimiz Ahmadjon Quronbekov⁸ va boshqalarning ilmiy asarlaridan foydalangan holda tadqiqotni **tavsifiy metod** asosida yozildi.

Izofali ko'makchilarni o'rganish muammolari

Ma'lumki, har bir til o'zining paydo bo'lish, tarqalish, rivojlanish va takomillashish tarixiga ega bo'ladi. Til paydo bo'lgach, o'z navbatida, tabiiy

³ جلال آل احمد . پنج داستان . چاپ پنجم . نشریات فردوس تهران . ۱۳۷۸ .

⁴ جلال آل احمد . سه تار . چاپ ششم . نشریات فردوس . تهران . ۱۳۷۴ .

⁵ Пейсиков Л.С. Очерки по слово образованию персидского языка. Издательство Московского Университета. 1973.

⁶ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. Москва. «Восточная литература» РАН.:2001.

⁷ علی اکبر دهخدا لغت نامه دهخدا . چاپ اول . چاپ دانشگاه . تهران . ۱۳۷۲ .

⁸ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti.:2009.

ravishda iste'mol yoki, aloqa jarayonida, o'z ichki va tashqi imkoniyatlari asosida rivojlanib, boyib boradi. Shu tarzda tilning "lug'at tarkibi" shakllanadi. Tilshunoslikda til lug'at tarkibini boyituvchi asosiy vositalardan biri bu, tilning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, ya'ni, shu tilda mavjud bo'lgan til elementlaridan foydalangan holda, yangi so'z hosil qilish yoxud "so'z yasash"dir. Tilshunoslikda so'z yasashning bir nechta usullari mavjud bo'lib ular: Affiksatsiya, Poluaffiksatsiya, Leksikalizatsiya, Kompozitsiya va boshqalar, shuningdek, fors tili lug'at tarkibining boyish jarayonida ham, boshqa eroniy tillarda bo'lgani singari, bir so'z turkumdan, boshqa so'z turkumiga o'tish yoki, ko'chish yo'li bilan yangi so'z hosil qilish (transpozitsiya) hodisasi kuzatiladi. Bu haqda ustozimiz A.Quronbekov quyidagicha fikr bildiradilar: "Fors tilida, so'z turkumlarning orasidagi chegara qat'iy bo'lmaganligini hisobga olib, so'zlarning bir turkumdan, ikkinchisiga oson o'tishini nazarda tutgan holda aytadigan bo'lsak, bu usulda yasalgan so'zlarning ancha boyligini, katta qismni tashkil etishini va ko'chish jarayoni hali ham davom etib kelayotganini aytib o'tish lozim."⁹

Biz o'rganayotgan ikki yarim ming yillik boy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan fors tili lug'at tarkibini boyishida ham, biz yuqorida nomlarini qayd etib o'tgan so'z yasash usullari orqali yasalgan so'zlar, so'z birikmalarining miqdori katta qismni tashkil etadi. Otdan yasalgan ko'makchilarning o'rganilishi borasida rus va o'zbek eronshunos olim va mutaxassislarining alohida yondashuvlari mavjud bo'lib, BMI da nazariy asos sifatida ham aynan rus va o'zbek eronshunoslarning fikrlariga tayandik, chunki, o'z kuzatuvlarimiz davomida, Eron tilshunos va dasturnavis olimlarning, otdan yasalgan, yoki izofali ko'makchilarni alohida ko'makchilar guruhiga ajratmaganliklarini guvohi bo'ldik, biz albatta ularni izofali ko'makchilarga nisbatan hech qanday fikr bildirmaydilar degan fikrdan yiroqmiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek, izofali ko'makchilarni tahlilida

⁹ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti.:2009.18-bet

nazariy manba sifatida rus va o'zbek eronshunoslarning yondashuvlariga tayangan holda, avvalo, tilshunoslikda "transpozitsiya" hodisasi haqida to'xtalib o'tsak.

Transpozitsiya so'zi lotincha "transpozitsio" "**o'rin almashtirish**", "**ko'chirish**", "**o'tkazish**", "**joyini almashtirish**" ma'nolarini anglatadi ya'ni grammatik kategoriyalarning o'ziga xos bo'lmagan vazifada qo'llanilishi, masalan, bir turkum so'zining matnda boshqa bir turkum so'zi kabi ishlatilishi¹⁰.

Transpozitsiya so'z yasalishi jarayonida, so'zning bir turkumdan boshqasiga o'tishini (ya'ni, bir leksik-grammatik kategoriyadan, boshqa bir leksik-grammatik kategoriyaga o'tishini) bildiradi. Shuningdek, tilshunoslikda ba'zida, transpozitsiya termini orniga "affikssiz (qo'shimchasiz) so'z yasalishi" termini ham qo'llaniladi¹¹, chunki bu jarayonda so'zga hech qanday qo'shimcha yoki, alohida bir grammatik vositalar qo'shilmaydi faqat, ularning semantikasi o'zgaradi xolos. Agar so'z transpozitsiyaga uchrasa, u ma'lum ma'noda o'z leksik-grammatik ma'nosidan chekinadi yoxud, semantikasi o'zgaradi va yangi funksional ma'noga ega bo'ladi. L.S.Peysikov¹² transpozitsiyaning umumiy modelini quyidagi formula bilan belgilash taklifini kiritadi:

$$O(C)_1 \rightarrow \Phi D \rightarrow C(O)_2 + \Pi r$$

$O(C)_1$ - birlamchi asos yoki, birlamchi so'z shakli,

(исходная первичная основа или слова форма)

ΦD - vazifalalarni to'liq sistemasi va yangi hosil bo'lgan so'zga xos distributsiya,

(полная система функций и дистрибуция свойственная возникшему словому)

¹⁰ Хожиев А.Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти.Тошкент.2002.164-бет.

¹¹ Пейсиков Л.С.Очерки по слово образованию персидского языка.Издательство Московского Университета.1973.с-122.

¹² Пейсиков Л.С.Очерки по слово образованию персидского языка. Издательство Московского Университета.1973.с-122.

O(C)₂ - dastlabki so'zga nisbatan boshqa so'z turkumiga oid so'z,

(возникшая основа или форма слова, по сравнению с исходным словом)

Пг - yangi hosil bo'lgan so'z paradigmasi,

(парадигматичность возникшего слова)

Transpozitsiyaning qolgan barcha modellari ham ushbu formuladan kelib chiqib amalgam oshiriladi (shuningdek "ot→ko'makchi" modeli ham). Shuningdek, konversiya(transpozitsiya)ning ikki xil shakli bor: diaxronik va sinxronik¹³. Diauxronik tavsif etganda transpozitsiya o'z lisoniy tabiatini mutlaqo o'zgartiradi, bunda yangi leksik-grammatik birlik(omonim so'z) paydo bo'ladi. Sinxronik shaklda esa, transpozitsiya tufayli bir turkumga xos lug'aviy birlik, boshqa turkumning doimiy a'zosiga butunlay aylanib qolmaydi, ya'ni ma'lum matn ichidagina u boshqa so'z turkumi sifatida keladi. Diauxronik jabha bilan tavsiflanuvchi transpozitsiyada faqat, turkum sathiga xos qonuniyatlar amal qiladi, sinxronik jabhadagi transpozitsiyada esa, til va nutqga xos qonuniyatlar amal qiladi. Sinxronik aspektda so'zning turkumi o'zgarmagan holda vazifa imkoniyati kengayadi(ko'p ma'noli birlik paydo bo'ladi). Shuningdek, transpozitsiya jarayonida ikki xil ko'chish mavjud: ichki va tashqi ko'chish. Ichki ko'chish - mustaqil so'z turkumlarining mustaqil so'z turkumlariga o'tishi (ya'ni substantivatsiya, ad'ektivatsiya, verbalizatsiya, pronominalizatsiya va boshqalar). Tashqi ko'chish - mustaqil so'z turkumlarining yordamchi so'z turkumlariga (shuningdek ko'makchiga) ko'chishi, yoki yordamchi so'z turkumlarining mustaqil so'z turkumlariga ko'chishi.

¹³Турдибойев Т.Х.Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси.Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун номзодлик диссертация автореферати.Ленинобод вилояти Омор кичик корхонаси.Тошкент.:1996.10-бет.

Otlardan ko'makchi yasash - transpozitsiyaning maxsus modellaridan biri bo'lib, bunda ko'makchi vazifasini bajarib keluvchi so'zning semantikasida o'zgarish ro'y beradi, ya'ni ular o'z genetik ma'nosiga bog'liq ravishda, o'sha genetik ma'nosidan kelib chiqib, yangi ma'no anglatadi, natijada ular nafaqat semantik jihatdan balki, sintaktik jihatdan ham o'zgaradi. Ko'makchiga ko'chishga pleonazm hodisasi ham sabab bo'ladi, **"pleonazm"** - bir lisoniy qiymatli turkum elementlarining yonma-yon tarzda ishlatilishidir. Buning natijasida ma'nodosh va vazifadosh elementlardan biri nutqiy-paradigmatik qiymat kasb etadi ya'ni boshqa so'z turkumiga xos ma'no va vazifaga moyillashadi¹⁴.

m: زیر پامان چیزی خرد می شد و ریزریز صدا می کرد. *Oyog'imiz ostida nimadir ezilardi va g'irch-g'irch ovoz chiqarardi.*(J.A.G.F.23) Ushbu jumladagi pleonazmga uchragan so'z "زیر" ko'makchi vazifasini bajarishga moyillashganligi oqibatida ko'makchiga ko'chgan.

Eron tilshunos olimlari tomonidan ko'makchilarning o'rganilishi va tasniflanishi.

Ko'makchilarni Eron dasturnavislari tarkibiy jihatdan asosan ikki guruhga bo'lishadi:

- Sodda ko'makchilar حروف اضافۀ ساده
- Murakkab ko'makchilar حروف اضافۀ مرکب

Mashhur Eron tilshunoslari Doktor Hasan Anvariyy va Doktor Hasan Ahmadiyy Giviy¹⁵ ko'makchilarni, agar bir tarkib yoki, so'zdan iborat bo'lsa, bunday ko'makchilar sodda ko'makchilar deb ularga quyidagilarni kiritishadi: در، بهر، از، به تا، بر، بی، بهر، va boshqalar. Shuningdek ular agar ko'makchi birdan ortiq so'z yoki qismdan iborat bo'lsa, ular murakkab ko'makchilar hisoblanadi deb,

¹⁴Турдибойев Тохир Хасанович. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун номзодлик диссертация автореферати. Ленинобод вилояти Омор кичик қорхонаси. Тошкент.: 1996. 14-бет.

¹⁵دکتر حسن انوری، دکتر حسن احمدی گیوی. دستور زبان فارسی. چاپ سوم. انتشارات فاطمی. تهران. ۱۳۸۵ص ۲۵۷.

ularga quyidagilarni kiritishadi: در باره va boshqalar. Ushbu sodda ko'makchilar qatorida sanab o'tilgan misollar orasida "uchun", "maqsadida" ma'nosini beruvchi yasama ko'makchini, ular tarkibiy jihatdan yondashib shunchaki sodda ko'makchi deb, alohida e'tibor qaratmasdan o'tib ketishadi, vaholangki, "ber" ko'makchisini, rus va o'zbek eronshunoslari otdan yasalgan, izofali ko'makchi deb ta'kidlaydilar. Bu haqda keyinroq to'xtalib o'tamiz. O'z kuzatuv va izlanishlarimiz davomida, ko'makchilarni tarkibiy jihatdan bunday tasniflanishi Eron dasturnavislarining barchasi tomonidan tan olinganini va amal qilinishini guvohi bo'ldik, masalan, Eronning mashhur tilshunoslaridan, "besh ustoz"¹⁶ (Abdul'azim Qariyb, Malikushshu'aro Bahor, Badiuzzamon Faruzonfar, Jalol Humoyi, Rashid Yosami) tomonidan tuzilgan "Fors tili grammatikasi"da, Najafali Mirzoyi tomonidan tuzilgan "Fors tili istilohlar lug'ati"¹⁷da, Ali Akbar Dehxudoning o'n to'rt tomli "Dehxudo lug'atnoma"¹⁸si va boshqalarda ham ko'makchilar yuqorida aytib o'tganimizdek tasniflangan. Shuningdek, Nadida Axsanovna Muxamedova o'zining "Eron dasturnavislari tadqiqotlarida so'z turkumlarining tasniflanishi" nomli ma'qolasida, Eron dasturnavislarining ko'makchilarni quyidagicha nomlashlari haqida ma'lumot berib o'tgan¹⁹:

Abbosali Mo'laviy o'zining "Fors tili grammatikasi" kitobida ko'makchilarni "حروف" deb nomlaydi.

Muhammad Javod Mashkur esa o'zining "Grammatika" kitobida ko'makchilarni "حروف اضافہ" deb nomlaydi.

Parviz Notel Xonlariy "Fors tili grammatikasi" kitobida ko'makchilarni "حروف اضافہ" deb nomlaydi.

¹⁶ عبدالعظيم قريوب . ملك الشعراى بهار . بديع الزمان فروزانصر . جلال همای رشید یاسمی . دستور زبان فارسی . چاپخانه گلشن . چاپ یازدهم . تهران . ۱۳۷۴

¹⁷ نجفعلی میرزایی . فرهنگ اصطلاحات . چاپخانه نهضت . چاپ دوم . قم . تابستان . ص: ۹۵ . ۱۳۷۴

¹⁸ علی اکبر دهخدا . لغت نامه دهخدا . مؤسسه انتشارات و چاپ دانشگاه تهران . جلد ششم . چاپ اول از دوره جدید . پائیز . ۱۳۷۲ . ص: ۷۷۳

¹⁹ Мухамедова Н.А. Классификация частей речи персидского языка в работах иранских грамматистов. Восточное языкознание. Сборник научных трудов. Издательство ТашГУ. Ташкент.: 1992. 24-с.

Abdurrasul Xayyom Pur “Fors tili grammatikasi” kitobida ko’makchilarni “حروف” deb nomlaydi.

“Besh ustoz ” A.Qariyb, M.Bahor, B.Faruzonfar, J.Humoyi, R.Yosamilar o’zlarining “Fors tili grammatikasi” kitoblarida ko’makchilarni “حروف اضافه” deb nomlashadi.

A.A.Dehxudo o’ziningning “Dehxudo luga’tnoma”sida ko’makchilarning o’rganilishi va tasniflanishi borasida Eron dasturnavislaridan Humoyun Farruxni ko’makchilarning tasniflanishida boshqacharoq yondashishini alohida aytib o’tadi. Ya’ni H.Farrux o’zining “Fors tilining Jome’ grammatikasi”- “دستور جامع زبان فارسی”da ko’makchilarni arab tiliga taqlid qilib “حرف اضافه” deb nomlash kerak emas, forsiyda unga munosib nom berish kerakligini ta’kidlab ko’makchilarni “old ko’makchilar” “حروف پیشین” yoki «پیشین» deb nomlash taklifini kiritadi. Shuningdek H.Farrux ko’makchilarni besh guruhga ajratadi. To’rtta asliy va bitta nisbiy guruh ko’makchilari:

1.Oxiri harakatsiz(بدون زیر) o’qiladigan (agar harakat bilan o’qilsa ma’no o’zgaradi) ko’makchilar:(ort ko’makchi را) ... بی ، از، تا ، بر، برای، نزد ko’makchilari,

2.Oxiridagi harakati(زیر) ma’no anglatmaydi, shuningdek bu guruhga faqat uchta quyidagi ko’makchilar kiradi: ب ، برای، نزد

3.Ham harakat(زیر)li, ham harakat(زیر)siz: بر، جز،

4.Boshqa so’zlar(ot va ravish) bilan mushtarak bo’lgan ko’makchilar(حروف مشترک), ular odatda gapda o’rin-joy va payt ma’nolariga ishora qilib, aniqlab keladi: کنار، دنبال، بهر، پائین، بالا، روی، پس، پیش، پی، زیر، سوی، بر، بجای

5.Yuqoridagilardan farqli ravishda, ikki so’z yoki qismdan iborat bo’lgan ko’makchilar²⁰.

علی اکبر دهخدا. لغت نامه دهخدا. مؤسسه انتشارات و چاپ دانشگاه تهران. جلد ششم. چاپ اول از دوره جدید: پانیز. ۱۳۷۲ ص: ۷۷۷۳²⁰

Shuningdek, A.A.Dehxudo ko'makchilarni ikki guruhga bo'ladi va ularni quyidagicha nomlaydi: 1.Xos ko'makchilar(حروف اضافة مختص)

2.Mushtarak ko'makchilar(حروف اضافة مشترك)

Xos(maxsus) ko'makchilar deb, gapda doim ko'makchi bo'lib keladigan (ya'ni sof ko'makchilarni) aytadi va ularga quyidagilarni kiritadi:...با، از، بر، در

Mushtarak(aralash) ko'makchilar deb, u gapda ba'zida ko'makchi vazifasida, ba'zida esa ot yoki, ravish yoki bo'lmasam boshqa bir so'z turkumi bo'lib keluvchi ko'makchilarni aytadi va ularga quyidagilarni kiritadi: ، پیش، نزدیک، زیر. Muallifning bu tarzda tasniflashiga sabab, ravish va ot gapda ko'makchi vazifasida kelishi uchun to'ldiruvchi bilan qo'llanilishi kerak, agarda ular gapda to'ldiruvchi bilan kelmagan bo'lsa, ular o'z mustaqil ma'nosida, ot yoki ravish so'z turkumiga oid bo'lgan so'z hisoblanadi.

Shunisi yaxshi - خوبیش این بودکه چفت پای در بود، نه مثل اتاق عموم ان بالا. m: bo'lgandiki, zulfi eshikning pastida edi , amakimning xonasiga o'xshab tepada emas.(J.A.G.F.19)

Asqar hovuzning labiga - اصغر نشست لب پاشوره و پایش را یکهو کرد توی آب. o'tirdida birdaniga oyog'ini suvga tiqdi.(J.A.G.F.29)

Birinchi gapdagi "pastida" so'zi gapda ko'makchi vazifasida kelgan otdir. Ikkinchi gapdagi "oyoq" so'zi, ot so'z turkumiga oid so'z bo'lib, gapda ega bo'lib kelgan. Shuningdek, bu borada J.Lazar²¹ biz tahlil ostiga olgan izofali ko'makchilarni, sof yoki, sodda ko'makchilar bilan birgalikda, murakkab ko'makchi hosil qilishga xizmat qiluvchi ravish, ot yoki, sifat turkumiga oid mustaqil so'zlardir deb ta'riflaydi va quyidagi misollardagi izofali ko'makchilarni izofaning bo'lagi, deb ta'riflaydi: ... در پشت دیوار، روی میز، زیر صندلی...

²¹ ژیلبرلازار. دستور زبان فارسی معاصر . انتشارات هرمس با همکاری مرکز بین المللی گفتگوی تمدنها. چاپ اول . تهران. ۱۳۸۴ص: ۱۰۰

Doktor H.Anvariyy va H.A.Giviylar²² bunday tartibdagi ya'ni, ravish, sifat va ot bilan qo'shilib murakkab ko'makchi hosil qilishda "az", "dr", "be", "br" va boshqa ko'makchilar ko'p ishlatiladi degan fikrni aytishadi. m: به طرف ، بر روی ،

J.Lazar bilan H.Anvariyy va H.A.Giviylarning izofali ko'makchilar borasidagi qarashlari bir xildir. Shuningdek, ularning izofali ko'makchilarni sof ko'makchilar bilan birga murakkab ko'makchi hosil qilganda, sof ko'makchilarni og'zaki tilda, nutq jarayonida tushurib qoldirilishi to'g'risidagi fikrlari ham bir xildir va bu borada alohida urg'u berib o'tadi, masalan: به ushbu misoldagi ko'makchisini tushurib qoldirilsa ham ma'no anglashiladi. Lekin, izofali ko'makchilar bilan postpozitiv va prepozitiv aloqaga kirishuvchi "az" ko'makchisini tushurib qoldirib bo'lmaydi. Sababi, ma'no umuman o'zgarib ketadi,²³ deydi J.Lazar. Shuningdek, J.Lazar, agarda ot murakkab ko'makchining qismi sifatida kelsa, u ot o'z mustaqil ma'nosini yo'qatadi deb, bu fikrni quyidagi misol bilan izohlaydi: در روی میز ushbu misoldagi ot turkumidagi "yuz" ma'nosini anglatuvchi so'z, ko'makchi o'rnida kelgan va o'z mustaqil ma'nosini yo'qotib, "ustida", "yuzida" degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, Eron dasturnavis olimlaridan Doktor Abdurrasul Hayyom Pur o'zining "Fors tili grammatikasi" kitobida, az, be, dr, ta, andr, ba, jz, bi, va boshqalarni ko'makchilarga kiritadi va yana shuni ham alohida ta'kidlab: "Yevropa tilshunoslari ko'makchi deb hisoblovchi جلو، روی، عقب، زیر، kabilar ko'makchi emas balki, boshqa otlar singari izofa zanjirining bo'lagi (aniqlanmishi) «مضاف» vazifasida kelgan otdir²⁴, lekin Yevropa grammatikalarida ularni ko'makchi sifatida bilishadi, chunki boshqa ko'makchilar singari, ular ham izofa orqali to'ldiruvchiga to'g'ridan to'g'ri bog'langanligi bois, Yevropa tillarida ular ot ko'rsatkichiga emas, balki ko'makchi ko'rsatkichiga ega bo'lib qolgan." deydi va o'z fikrini quyidagi misol bilan

²² دكتور حسن انورى، دكتور حسن احمدى گيوى. دستور زبان فارسى. چاپ سوم. انتشارات فاطمى. تهران. ۱۳۸۵ص ۲۵۷.

²³ ژيلبرلازار. دستور زبان فارسى معاصر. انتشارات هرمس با همكارى مركز بين المللى گفتگوى تمدنها. چاپ اول. تهران. ۱۳۸۴.

²⁴ دكتور عبد الرسول حيايم پور. دستور زبان فارسى. چاپخانه آرمان. چاپ هشتم. تهران. ۱۳۷۲ص: ۱۰۷.

izohlaydi: *میز روی* birikmasini fransuzchaga “sur la table” deb tarjima qilinadi, “sur de la table” deb emas, birikmadagi “روی” so’zi fors tilida “مضاف”- “*aniqlanmish*” bo’ladi. Chunki زیر، عقب، جلو، روی so’zlari alohida, mustaqil tarzda (ega, kesim va boshqa) gap bo’lagi bo’lib kela oladi²⁵, m: *Boshim* - من میگم ، سرم گیج میره. *(J.A.G.F.25)*

درست وقتی که بابام سِر حوض وضو می گرفت یک تگه کاه گل از دنبال کفترها انداخته بود.

Ayni, dadam hovuz bo’yida tahorat olayotgan payt, kabutarlarni orqasidan bir kesak kelib tushdi. (J.A.J.F.32)

XULOSA

Tadqiqot davomida Eron tilshunoslaridan A.A.Dehxudo, H.Anvari, H.A.Giviy, P.N.Xonlariy, H.Anzaliy, besh professor: A.Qariyb, M.Bahor, B.Faruzonfar, J.Humoyi, R.Yosami, A.Hayyompur, N.Mirzoyi va fransuz eronshunosi J.Lazarlarning ilmiy asarlari va lug’atnomalarini o’rganib, tahlil qilib chiqdik va ularning hech birida “otdan yasalgan ko’makchi”, “yasama ko’makchi” degan termini uchratmadik. Lekin A.A.Dehxudo (H.Farruxning grammatikasida ham) , A.Hayyompur ismiy ko’makchilarni vazifadosh ot va ravishlar deb nomlaganlarini guvohi bo’ldik, shuning natijasi o’laroq (A.A.Dehxudo ko’makchilarni xos va mushtarak ko’makchilar deb ataydi) ularning qaysi turkumga mansubligi, faqatgina sintaktik kontekst orqali namoyon bo’ladi degan fikr bildirishini aytib o’tgan edik. Chunki fors tilidagi so’z turkumlari o’rtasidagi chegara qat’iy emas va Eron tilshunoslari tomonidan bu masalaga kam e’tibor berilgan, bunga sabab, Eronning aksariyat tilshunoslarining grammatik asarlarida, ayniqsa so’z turkumlarining tasniflanishi borasida arab tiliga taqlid qilib ya’ni, arab tili grammatikasi va morfologiyasi nuqtai-nazaridan yondashish an’anasi kuzatiladi (“حروف اضافه” deb nomlash nazarda tutilmoqda), albatta bunga (arab tiliga taqlid qilish an’anasiga) e’tiroz bildiruvchilar ham bor, masalan H.Farrux

²⁵ دکتر عبد الرسول حیات پور. دستور زبان فارسی. چاپخانه آرمان. چاپ هشتم. تهران. ۱۳۷۲ص: ۱۰۸.

arab tili grammatikasining ta'siridan qochishga harakat qiladi va so'z turkumlarini tasniflash va nomlash borasida, sof forsiy termin va atamalarni qo'llash masalasini ilgari suradi(yuqorida H.Farruxning ko'makchilarni «پيشين» deb nomlagani fikrimizning isbotidir).

Rus va o'zbek eronshunoslari tomonidan izofali ko'makchilarning o'rganilishi va tasniflanishi.

Fors tili analitik tillar guruhiga mansub tillardan biridir ya'ni fors tilida maxsus kelishik kategoriyasi mavjud emas, shuning uchun kelishik kategoriyasining vazifasini yordamchi(ko'makchi, yuklama, bog'lovchi) so'zlar, egalik olmoshlari va gap qurilishi va boshqa vositalar bajaradi. Ma'lumki, yordamchi so'zlar o'z mustaqil ma'nosiga ega bo'lmaydi va ular gapda, gap bo'laklarini bir-biriga nisbatan ma'no munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Fors tilida yordamchi so'z turkumlari orasida, gapdagi so'zlar va so'z birikmalari yoki, gap bo'laklarini bir-biriga bog'lashda eng ko'p qo'llaniladigani bu old ko'makchilardir (shuningdek “رَا” ort ko'makchisi ham). Ularning qo'llanilishi haqida Yu.A.Rubinichik: “Old ko'makchilar boshqa yordamchi so'z turkumlari singari, kategorial ma'noga ega bo'lganligi bois, ular gapda leksik ma'nosiga qarab emas, balki funksional ma'nosiga qarab qo'llaniladi. Shundan kelib chiqib old ko'makchilar quyidagicha guruhlanadi:”²⁶

- o'rin va joy ma'nosiga ko'ra: روى، پشت
- harakat yo'nalishiga ko'ra: به طرف ، به سمت
- sabab-vosita ma'nosiga ko'ra : به علت، به سبب

Yu.A.Rubinichik Eron tilshunoslaridan farqli ravishda ko'makchilarni guruhlashda nisbatan boshqacharoq yondashadi va ularni quyidagicha nomlaydi:

- Asosiy/ Sof /Asliy ko'makchilar

²⁶ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. Москва. «Восточная литература» РАН.:2001.311-с.

- Izofali/Yasama yoki, ismdan yasalgan ko'makchilar.

Yu.A.Rubinchik ko'makchilarni bu tarzda tasniflashni quyidagicha asoslab beradi: “Sof va yasama ko'makchilar, gapda bir xil, ya'ni ma'no munosabatini shakllantirishga xizmat qilgani bilan, ular kelib chiqishi, ma'nosi va tuzilishiga ko'ra, bir-biridan farq qiladi.”²⁷ Shuningdek, Yu.A.Rubinchik, ko'makchilarni, gap bo'laklari va so'z yoki, so'z birikmalariga birikish o'rniga ko'ra, ikki guruhga ajratadi:

1.Old ko'makchilar (Предлог) در، تا، از، به

2.Ort ko'makchi (Послелог) را

Ko'makchilarni tarkibiy jihatdan bo'linishi borasida Yu.A.Rubinchik ham xuddi Eron tilshunoslari singari, ikki guruhga ajratadi: 1.Sodda - bir tarkibli ko'makchilar. 2.Murakkab - ikki yoki, uch tarkibli ko'makchilar:

Biz ko'makchilarni kelib chiqishiga ko'ra, Yu.A.Rubinchik ikki guruhga ajratganini yuqorida aytib o'tgan edik. Lekin, Yu.A.Rubinchik yasama ko'makchilarni o'zini ham, sodda va murakkab ko'makchilarga ajratadi va ularni quyidagicha guruhlarga ajratadi:

a) bir so'zdan iborat bo'lgan va doim, izofa bilan qo'llaniladigan (sof ko'makchilarsiz) yasama ko'makchilar: روی، توی، پشت

b) oldiga sof ko'makchi qo'shiluvchi yoxud sof ko'makchi bilan prepozitiv aloqaga kirishuvchi va o'zidan keyingi so'zga izofa orqali birikuvchi yasama ko'makchilar: از میان، در باره، در پشت

c) orqasidan sof ko'makchi qo'shiluvchi yoki sof ko'makchilar bilan postpozitiv aloqaga kirishuvchi va doim izofasiz birikuvchi yasama ko'makchilar: قبل از، بعد از، غیر از:

²⁷ Рубинчик Ю. А. Грамматика современного персидского литературного языка. Москва. «Восточная литература» РАН.:2001.312-с.

Yu.A.Rubinichik yasama ko'makchilarni oldiga biror sof ko'makchi qo'yilsa, ular murakkab ko'makchi ko'rinishiga kelib qoladi deydi va sof ko'makchilarni yasama ko'makchilarga birikish tobeligi jihatdan ikki guruhga ajratadi: 1.Majburiy sof komakchilar - ular yasama ko'makchilar bilan postpozitiv aloqa munosabatiga kirishuvchi ko'makchilar. m: “بنابر” bunda sof ko'makchini tushurib qoldirilsa, ma'no buziladi, o'zgaradi.

2.Ixtiyoriy sof ko'makchilar - ular yasama ko'makchilar bilan prepozitiv aloqa munosabatiga kirishuvchi ko'makchilar. m: “به پیش” bunda sof ko'makchi tushirib qoldirilsa ham, ko'makchining ma'nosini anglasa bo'ladi, shuning uchun asosan og'zaki nutqda ularni ya'ni sof ko'makchilarni tushurib qoldirilishi kuzatiladi. او پیش من آمد - *U mening oldimga keldi.* Bu gapni او به پیش من آمد shaklida bo'lishi shart emas chunki ikkala holatda ham ma'no o'zgarmaydi. Izofali ko'makchilarni tasniflanishi borasida o'zbek olim va mutaxassislarining yondashuvalari nisbatan boshqacharoq. Ko'makchilarni ustozlarimiz M.Abdusamatov va A.Quronbekovlar tarkibiy jihatdan uch guruhga bo'ladilar: 1.Asosiy ko'makchilar. 2.Izofali ko'makchilar. 3.Murakkab ko'makchilar.

Marhum ustozimiz M.Abdusamatov izofali ko'makchilar haqida quyidagicha fikr bildirib o'tganlar: “Fors tillidagi ba'zi mustaqil ma'noga ega bo'lgan ot va ravishlar o'zining vazifadoshlik(grammatik) xususiyatiga ko'ra, gapda ko'makchi vazifasini ham bajarishi mumkun va fors tlida, bunday ko'makchilar yigirmadan ortiqdir, shuningdek, ular doim o'zidan keyin keluvchi so'z yoki gap bo'lagiga izofa bilan bog'lanadi.”²⁸

Izofali ko'makchilarning miqdori masalasida rus eronshunos olimi L.S.Peysikov quyidagi fikrni bildirib o'tadi: “Yangi fors tilida yasama, otlardan yasalgan yoxud izofali ko'makchilar keng tarqalgan. Agar, o'rta fors tili davrida ular rivojlana boshlagan bo'lsa, yangi fors tili davriga kelib, ularning miqdori

²⁸ Abdusamatov M. Fors tili.Sharq nashriyoti.Toshkent.:2007.111-bet.

saksontadan oshib ketdi.”²⁹ Bu haqda ya’ni, izofali ko’makchilarning miqdori borasida ustozimiz, A.Quronbekov quyidagi fikrni bildirganlar: “Fors tilining lug’at tarkibida transpozitsiya usulining (ot→ko’makchi) modelida yasalgan yuzlab ko’makchilarni uchratish mumkin”³⁰, Yu.A.Rubinchik esa quyidagi fikrni bildirgan: “Fors tilidagi bunday ko’makchilar (ya’ni izofali ko’makchilar)ni asosini vazifadosh yoki ko’p ma’noli otlar tashkil qiladi va ular ko’makchi vazifasini bajarib kelganda, ichki ma’no aloqadorligini saqlagan holda, ya’ni ichki ma’nosidan kelib chiqib yangi ma’no anglatadi. Shunga ko’ra, yasama, izofali ko’makchilar, sof komakchilardan, leksikaviy ma’nosi jihatdan ustunroq va ko’p ma’noli xususiyatiga egaligi uchun ham, iste’molda faol qo’llaniladi. Shuningdek, izofali ko’makchilarni paydo bo’lishi borasida, Yu.A.Rubinchik, zamonaviy fors tilida izofali ko’makchilar hozirda, otlar hisobidan ko’payib borishini ta’kidlab o’tadi.”³¹ Izofali ko’makchilarning paydo bo’lishi borasida, N.A.Muxamedova quyidagi fikrni bildiradi: “Fors tili yordamchi so’zlar tizimida, otlar va yordamchi so’zlar orasida, otlardan yordamchi so’zlarga ko’chish bilan yangi birliklar hosil bo’lish hodisasi uzluksiz davom etib kelayotgan jarayondir”³², shuningdek izofali ko’makchilarni paydo bo’lishi borasida, L.S.Peysikov atroflicha fikr yuritib, bu jarayonni chuqur tahlil qilgan. Uning ta’kidlashicha, otdan ko’makchiga o’tish (ot → ko’makchi) jarayonida, o’tuvchi so’z ma’nosi o’zgaradi. Bu hol ayniqsa, konkret ma’no anglatuvchi otlarda yaqqol ko’zga tashlanadi.”³³

Biz bu fikrni quyidagi misollar bilan izohlaymiz:

²⁹ Пейсиков Л.С. Очерки по слово образованию персидского языка. Издательство Московского Университета.1973.с-142.

³⁰ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi.Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti.:2009.18-bet

³¹ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка.Москва. Восточная литература.РАН.:2001.320-с

³² Мухамедова Н.А. Классификация частей речи персидского языка в работах иранских грамматистов.Восточное языкознание.Сборник научных трудов.Издательство ТашГУ.Ташкент.:1992.21-с.

³³ Пейсиков Л.С. Очерки по слово образованию персидского языка. Издательство Московского Университета.1973.с-142.

m: *برو بچه، دست روت راهم بشور* - *Boraqol, bolam yuz-qo'lingni ham yuvib olgin.*(J. A.G.F.13)

m: *بابام رو کرسی نشسته بود* - *Dadam stul ustida o'tirgan edi.*(J.A.J.F.34)

Birinchi gapdagi “رو” so’zi ot sturkumiga oid va o’z mustaqil ma’nosida kelgan. Ikkinchi gapdagi “رو” so’zi esa dastlabki ma’nosidan chekinib “ustida” degan yangi, funksional ma’no anglatib ko’makchi bo’lib kelgan va gapda ma’no munosabatini shakllantirishga xizmat qilgan. L.S.Peysikov “پهلو” - “biqin”, “پشت” - “orqa”, “رو” - “yuz”, “پا” - “oyoq”, va boshqa shu kabi konkret ma’noli otlarni mustaqil, ot ma’nosidan tashqari o’rin-joyini bildiruvchi funksional ma’noga ega ham ekanligini takidlaydi: “رو” - “yuz” so’zi “ust”, “yuza” “پا” - “oyoq ” so’zi “past”, “pastki taraf” ma’nolarini ham bildirib keladi. Bu haqda ya’ni, konkret ma’noli otlarning ichki ma’no aloqadorligidan kelib chiqib yasalgan izofali ko’makchilarning paydo bo’lishi to’g’risida Yu.A.Rubinchik ham, xuddi L.S.Peysikov singari, o’rin va yo’nalishni bildiruvchi so’zlardan, o’rin va yo’nalish; paytni bildiruvchi so’zlardan payt ma’noli; sababni bildiruvchi so’zlardan sabab ma’noli ko’makchilar kelib chiqqan deb ta’kidlaydi. Shunga ko’ra izofali ko’makchilarni ma’lum bir guruhlariga ajratganini biz yuqorida aytib o’tgan edik.

Ma’lumki, izofali ko’makchilar ma’lum ma’noda dastlabki, ya’ni etimologik ma’nosi yoki, o’zi paydo bo’lgan so’zning mustaqil ma’nosiga nisbatan yangi ma’no hosil qiladi. Shunday ekan, bu jarayonda ichki ma’no aloqadorligi muhim va hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu haqda L.S.Peysikov: “Ichki ma’no aloqadorligisiz so’zning vazifadoshligi rivojlana olmaydi, buning uchun **munosib zamin** kerak. Shuningdek, buni amalga oshirish uchun ko’makchilarning ishlatilishini, yangi sintaktik vazifa (otli ko’makchi struktura) sini, o’rin almashish va sintagmatik sharoitlari, distributsiyasi (o’zidan oldin yoki keyin keluvchi so’zlar

bilan munosabati)ni kuzatib chiqish lozim.”³⁴ deydi. Biz esa bu fikrni quyidagi misollar orqali izohlaymiz:

a) سرمناره ميرين؟ (J.A.G.F.27)

Yana qaytib minora tepasiga chiqasanmi?

b) سرش به بالای گلدسته که رسید ایستاد.

Boshi minora uchiga yetib to'xtadi.(J.A.G.F.25)

Birinchi misoldagi سر “bosh” so’zi ko’makchiga o’tib, “tepasiga”, “ustiga” degan ma’noni anglatadi va sintaktik jihatdan, gapda to’ldituvchi bo’lib, harakat yo’nalishini ko’rsatadi. Ikkinchi gapdagi سر “bosh” so’zi esa o’z mustaqil ma’nosida ya’ni, ot bo’lib gapda sintaktik jihatdan ega vazifasini bajarib kelgan. Shuningdek bu ikki gapdagi سر so’zining o’zaro distributsiyasi ham o’zgargan. Birinchi gapdagi سر so’zi kontekstda ikkiyoqlama munosabatga kirishgan. Ikkinchi gapdagi سر so’zi esa bir yoqlama, faqat egalik qo’shimchasi bilan munosabatga kirishgan. Shuningdek, nutq jarayoni yoki, so’zlashuv uslubida izofali ko’makchilarning izofasi tushirib qoldirilishi ham kuzatiladi, chunki ularni ma’nosini kontekstdan ham, qaysi ma’noda kelganini tushunib olsa bo’ladi.

m: اصغر ریزه فهمید که معلم مان تو اتاق اول مدرسه می خوابد. *Asqar pakana o’qituvchimizni maktabning birinchi xonasi(ichi)da uxlab yotganligini tushundi(bilib oldi).*(J.A.G.F.14)

Biz yuqorida ko’makchiga o’tish hodisasi, ot so’z turkumidan tashqari boshqa so’z turkumlari(ravish,sifatdosh) doirasida ham uchrashi haqida aytib o’tgan edik, shuningdek, “**ko’makchilashish**” jarayonini L.S.Peysikov hali yaxshi o’rganilmagan va muammoli, murakkab hodisa,³⁵ deb ta’kidlaydi va shu nuqtai nazardan kelib chiqib, u ko’makchiga ko’chish hodisasi, so’z turkumlarining

³⁴ Пейсиков Л.С. Очерки по слово образованию персидского языка. Издательство Московского Университета.1973.с-142.

³⁵ Пейсиков Л.С. Очерки по слово образованию персидского языка. Издательство Московского Университета.1973.с-141.

o'zaro aloqadorligisiz ham kelib chiqaveradi³⁶ deb, quyidagi holatlarni qayd etib o'tadi: 1. So'z transpozitsiyasi va uning ikki yoqlama aloqa munosabatiga kirishishi.

2. Moddiy kategorial (predmetlilik) ma'noning yo'qolishi va yangi kategorial aloqadorlikning hosil bo'lishi kabi vazifaning o'zgarishi natijasida o'rin almashinish holatlari.

3. Transpozitsiya hodisasi natijasida paradigmatik (so'z o'zgartirish formalari sistemasi) shakl o'zgarishi va boshqalar.

Ko'makchilashish jarayonida, L.S. Peysikov "ot→ko'makchi" modeli amalga oshirilganda, $O(C)_1 \leftrightarrow O(C)_2$ (ya'ni o'tuvchi so'zning ko'makchiga o'tib bo'lganidan keyingi shakli)ni gapda taqqoslaganda omonimlik kuzatilishiga ham e'tibor qaratadi. Yuqorida keltirilgan jumalardagi سر "bosh" va سر "ust" tarzida, bu ikki negiz bir-biridan ham semantikasi, ham funksiyasi jihatdidan, ham distribitsiyasi bilan farq qiladi. Biz o'z izlanishlarimiz davomida so'z yasovchi transpozitsiyaning ko'makchilashish modelidan boshqa (Otlashish, Fe'llashish, Ravishlashish, Sifatlashish va boshqa) modellari ham mavjudligini ko'rdik. Transpozitsiyaga uchragan har qanday so'zni, u qaysi so'z turkumiga mansubligidan qat'iy nazar, uning transpozitsiyaga uchragan vaqtini, sababini aniq aytib bo'lmasligini guvohi bo'ldik. Chunki bu hodisaga nisbatan konkret xulosa chiqarish, izohtalab savollarni keltirib chiqaradi. Bu haqda L.S. Peysikov shunday deydi: "**Ko'makchilashish**" hodisasi, diaxronik jarayonlarda sodir bo'luvchi hodisa bo'lib, otlar ko'makchiga ma'lum bir vaqt mobaynida sekin-astalik bilan o'tib boradi, shu bilan birga, hamma izofali ko'makchilarning paydo bo'lishini ham aniq bir payt bilan belgilab bo'lmaydi, yoki ularning ko'makchiga aylanishi

³⁶ Пейсиков Л.С. Очерки по слово образованию персидского языка. Издательство Московского Университета. 1973. с-143.

uchun qancha vaqt kerak bo'lishini aniq bir sana bilan bog'lab bo'lmaydi"³⁷ BMI ning yana bir muammoli tomoni ham, aynan, ko'makchilashish hodisasining xronologik jihatdan bahsli ekanligidir.

XULOSA

Tadqiqot davomida biz rus eronshunoslaridan Yu.A.Rubinchik va L.S.Peysikovning, o'zbek eronshunoslaridan N.A.Muxamedova va ustozlarimiz A.Quronbekov, X.Alimova, A.Vohidov, marhum ustozimiz M.Abdusamatov va boshqalarning ilmiy asarlarini o'rganib, tahlil qilib chiqib ushbu xulosaga keldik. Otdan yasalgan izofali yoxud ismiy ko'makchilar mavzusiga rus va o'zbek eronshunoslari tomonidan alohida e'tibor qaratilgan, masalan L.S.Peysikov otdan ko'makchiga ko'chish yoxud, ko'makchilashish transpozitsiyasini umumiy modelini yaratgan va qanday tartibda, asosan qaysi turkumlardan ko'makchiga ko'chishi haqida atroflicha fikr yuritgan, shuningdek, Yu.A.Rubinchik ham bu borada alohida fikr bildirib o'tadi (ya'ni bu o'rinda Yu.A.Rubinchikning fors tilidagi ko'makchilarni kelib chiqishiga ko'ra, ikki guruhga ajratganligi nazarda tutilmoqda). Ya'ni ular bu hodisaga alohida bir til hodisasi sifatida yondashishlarini guvohi bo'ldik. Shuningdek o'zbek eronshunoslari ham bu borada alohida fikr bildirib o'tishgan, jumladan ustozlarimiz A.Quronbekov va M.Abdusamatov ko'makchilarni uch guruhga bo'lganlarini (asosiy, izofali va murakkab ko'makchilar) aytib o'tgan edik. Biz o'z tadqiqotimiz davomida rus eronshunosi L.S.Peysikovning ko'makchi transpozitsiyasi borasidagi fikrlariga tayandik, chunki olim ko'makchi transpozitsiyasiga doir barcha masalalarni aniq to'liq yoritib, asoslab beradi.

³⁷ Пейсиков Л.С. Очерки по слово образованию персидского языка. Издательство Московского Университета.1973.с-144.

I.Ko'makchilarning funksional xususiyatlari

1.1.Izofali ko'makchilarning gap tarkibidagi

sintaktik-semantik vazifasi.

Ma'lumki, ko'makchilar yordamchi so'zlar turkumiga kiradi. Yordamchi so'zlar esa o'zining atash ma'nosiga ega bo'lmaydi va mustaqil tarzda ma'lum bir so'roqqa ham javob bo'lolmaydi, shuningdek, gap tarkibida mustaqil tarzda biror bir gap bo'lagi vazifasini ham bajarolmaydi. Yordamchi so'zlarning ushbu umumiy qonuniyati ko'makchilar uchun ham xosdir, demak ushbu sintaktik qoida, bevosita bizning ilmiy ishimizning mavzusi bo'lgan otdan yasalgan izofali ko'makchilar uchun ham xosdir. Ushbu nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda, ko'makchilarning gap tarkibidagi yoki iste'moldagi sintaktik-semantik vazifasi belgilanadi. Ko'makchilarning vazifasi borasida o'zbek tilshunoslari quyidagicha fikr bildiradilar:

Ko'makchilar gapda qaysi so'z, so'z birikmasi yoki gap bo'lagidan keyin, yoki oldin kelsa, o'sha so'z yoki gap bo'lagi bilan birgalikda bir xil so'roqqa javob bo'ladi va ko'makchi birikkan so'z, qaysi gap bo'lagi vazifasini bajarsa, ko'makchi ham o'sha bo'lak bilan qo'shilib, bir xil gap bo'lagi bo'lib keladi³⁸.

Izofali ko'makchilarning gap tarkibidagi vazifasi haqida Yu.A.Rubinchiq: "Sof/Asosiy va Izofali/Yasama ko'makchilar birga ishlatilganda, asosiy-bosh ma'noni izofali ko'makchi(ko'makchi vazifasida kelgan so'zlar: ot yoki ravish)lar beradi, ya'ni ot ko'makchilar gapda, gap bo'laklari o'rtasidagi vositachi sifatida ishtirok etib, sintaktik munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi."³⁹ deb ta'kidlaydi. Biz buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin.

m: من لنگان لنگان راه افتادم به طرف در مدرسه. (J.A.G.F.29)

³⁸Хамроев М.А. Ўзбек тилидан маърузалар тўплами. Тўлдирилган ва қайта ишланган еттинчи нашри. Низомий номидаги Тошкент Давлат Педагогика Университети. Тошкент.:2006.90-с

³⁹Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. Москва. Восточная литература.РАН.:2001.322-с.

Men oqsoqlana-oqsoqlana maktab eshigi tomon(ga) yo'lga tushdim.

Ushbu gapdagi ot ko'makchi ham sof ko'makchining ma'nosini konkretlashtiryapti, lekin ular(ko'makchilar)ning ikkalasi ham aynan ushbu kontekst uchun o'rinli va bir-birini to'ldirib, fikrni aniqlashtirib turibdi. Izofali/Ismiy ko'makchilarning gap tarkibidagi vazifasi haqida L.S.Peysikov: "Ma'lumki ko'makchilar yordamchi so'zlar turkumiga mansubdir, va gapda ma'noni bog'lashga xizmat qiladi. Odatda ot ko'makchi vazifasida kelsa, ichki ma'no aloqadorligiga asoslanadi."⁴⁰ deydi. Ushbu fikrdan **yasama yoki otdan yasalgan ko'makchilar ham boshqa(sof va murakkab) ko'makchilar singari, gapda grammatik ma'no munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi** deb xulosa chiqarsak bo'ladi. Ko'makchilar sof grammatik ma'no va ko'rsatkichga ega, shuningdek ular ma'lum ma'noda leksik ma'noga ham egadir, chunki ular gapda ma'no bog'lashga xizmat qilishi uchun ham qandaydir ma'no kasb etishi kerak, shuning uchun ularda ham shartli ravishda qisman leksik ma'no bor deya olamiz, albatta bu mustaqil so'z turkumlarining ma'nosi darajasida emas, ko'makchilarning leksik ma'nosi ustama/ikkilamchi ma'no kasb etadi va ular mustaqil ma'noli so'zlar uchun, ularning grammatik qiymati uchun xizmat qiladi.

Ko'makchilarning gap tarkibidagi sintaktik-semantik vazifasi haqida Eron tilshunoslari atroflicha fikr yuritishgan, masalan, mashhur tilshunoslardan Hasan Anzaliy o'zining "Fors tili grammatikasi" nomli kitobida ko'makchilarni gapda vositali to'ldiruvchining fe'lga munosabatini shakllantiradi⁴¹ deb ta'kidlaydi.

خیلی دلم می خواست سری هم به پشت بام بزنم و کفترهای اصقر آغارا تماشا کنم. m:

Tom(orqasi)ga chiqib bir marta bo'lsa ham Asqar og'oning kabutarlarini tomosha qilishni juda ham xohlardim.(J.A.J.F.41)

⁴⁰ Пейсиков Л.С. Очерки по слово образованию персидского языка. Издательство Московского Университета.1973.с-143.

⁴¹ شامل شناسایی حسن انزلی.دستور زبان فارسی.انتشارات انزلی.اورمیه. ۱۳۷۰ ص: ۱۱۲

Izofali ko'makchilarning gapdagi vazifasi haqida Doktor Parviz Notel Xonlariy quyidagi fikrni aytadi: "Ko'makchilar gapda bir ot(ism)ni boshqa bir ot(ism)ga; bir olmoshni boshqa bir olmoshga va boshqalarga nisbatan grammatik ma'no munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek ko'makchilar fe'lining to'ldiruvchisini shakllantirishga ham xizmat qiladi"⁴²

m: متمم مکانی - فریدون پیش من آمد

m: متمم زمانی - از دیروز هوا سرد است

m: متمم چگونگی - احمد به سرعت دوید

m: متمم مقداری - یک هندوانه را به ده ریال می فروشند

m: متمم وسیله و آلت - ایرج به دو چرخه گردش کرد

Ko'makchilarning gap tarkibidagi vazifasi borasida "besh ustoz" A.Qariyb, M.Bahor, B.Faruzonfar, J.Humoyi, R.Yosamilar ham xuddi P.N.Xonlariy, H.Anzaliy va boshqa Eron dasturnavislari singari, ko'makchilar ikki so'z, ikki bo'lak yoki gap o'rtasidagi ma'no munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi⁴³ degan fikrni bildirishadi, bu borada A.A.Dehxudo: "Ko'makchilar ikki so'z o'rtasidagi munosabatni ifodalashga xizmat qiladi, shuningdek ko'makchidan keyin keluvchi so'z, o'z ko'makchisi bilan birgalikda to'ldiruvchi bo'lib keladi"⁴⁴. Shuningdek, gapda ko'makchilar gap bo'laklarining bir-biriga, to'ldiruvchini fe'lga munosabatini shakllantiradi, bog'laydi⁴⁵ deydi.

Yuqorida, ilmiy manbalarda keltirilgan ko'makchilarning gap tarkibidagi vazifasi va ma'nosi borasidagi fikrlardan kelib chiqib ismiy ko'makchilarning gap tarkibidagi vazifasi va semantikasi jihatdan quyidagi misollar ko'rinishida tasniflab chiqdik.

⁴² دکتر پرویز ناتل خانلری . دستور زبان فارسی . چاپ بیستم. تهران: توس. ۱۳۸۴ ص: ۷۵ .

⁴³ بدالعظیم قریب ملک الشعراى بهار . بدیع الزمان فروزانصر . جلال همای رشید یاسمی . دستور زبان فارسی . چاپخانه گلشن . چاپ یازدهم. تهران. ۱۳۷۴ . ص: ۲۰۵

⁴⁴ علی اکبر دهخدا . لغت نامه دهخدا . مؤسسه انتشارات و چاپ دانشگاه تهران . جلد ششم . چاپ اول از دوره جدید: پائیز . ۱۳۷۲ ص: ۷۷۷۳

⁴⁵ دکتر حسن انوری، دکتر حسن احمدی گیوی. دستور زبان فارسی. چاپ سوم. انتشارات فاطمی. تهران. ۱۳۸۵ ص: ۲۵۷.

1.Sintaktik jihatdan izofali ko'makchilar gapda **to'ldiruvchining fe'lga munosabatini** shakllantiradi:

m: یک موش از دم پایم در رفت و دوید لای هیزوما، من محل نگذاشتم و هیزومهارا بردم توی مطبج.

Bir sichqon oyog'imni yonginasidan o'tib ketdi va o'tinlarning orasiga yugurib kirib ketdi, men e'tibor bermasdan o'tinlarni oshxona oldiga tashiyverdim.(J..A.J.F.40)

2.Semantik jihatdan.

a)o'rin ma'nosini bildiruvchi ko'makchilar:

m: اصغر نشست لب یاشوره و پایش را یکهو کرد توی آب. *Asqar hovuzning labiga o'tirdi va shuzahoti oyog'ini suvga tiqdi.(J.A.G.F.29)*

b)yo'nalishni bildiruvchi ko'makchilar:

m: مگه این روزها همیشه اصلاً طرف کمیسری رفت؟

Shu kunlarda komissariyat tomonga borib bo'larmidi? (J.A.J.F.44)

v)sabab-maqсадni bildiruvchi ko'makchilar:

Lekin sen nima uchun kuyinyapsan? (J.A.L.S.51) امّا واسه ی چه غصّه می خوری؟

Agarda ismiy ko'makchilar sof ko'makchi("از", "با", "به", "بر", "در") lar bilan birgalikda ishlatilsa, ma'no anglatish doirasi yanada kengayadi(ya'ni ular bunday shaklda murakkab ko'makchi ko'rinishiga o'tadi) va quyidagi ma'nolarni ham anglatadi.

a)sabab-maqсад ma'nosini anglatuvchi ko'makchilar:

m: اصلاً شاید به علت همین خانه کوچک بودکه مرا گاشتند مدرسه.

Balki, aslida meni mana shu kichik xonani deb(sabab bo'lib) maktabga qo'yishgandir.(J.A.G.F.20)

b)vosita ma'nosini anglatuvchi ko'makchilar:

m: هفت جلد کتاب فارسی که می بایست به وسیله ی اداره "الگمارک و المکوس" برای "وزارة انطباعات" بغداد فرستاده شود.

"وزارة انطباعات" idorasi orqali Bog'dod "الگمارک والمکوس" kerak bo'lgan sakkiz jild forscha kitob.(J.A.A.M.)

Biz yuqorida ko'makchilarning gap tarkibidagi vazifasi haqida so'z yuritdik, endi ularning gapda qo'llanilishi va mavqei haqidagi qarashlar bilan tanishib chiqamiz.

1. 2.Izofali ko'makchilarning qo'llanilishi.

Ma'lumki, til aloqaning eng optimal vositasi hisoblanadi, shunday ekan, til jarayonlari sodda, aniq, to'liq va imkon boricha qisqa bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi, ushbu holatdan kelib chiqib, og'zaki nutq jarayonida odatda ikkinchi darajali vositalarni tushurib qoldirishga moyillik kuchli bo'ladi, shuning uchun ko'makchilar ham ko'pincha, og'zaki nutq jarayonida qisqartiriladi, ixchamlashtiriladi ba'zida esa, umuman tushurib qoldirilishi ham mumkin.

Izofali ko'makchilarning hozirda rasmiy-idoraviy, matbuot tillarida va so'zlashuv tilida ham keng qo'llanilishini ko'rish mumkin, lekin so'zlashuv tilida ko'pincha izofali ko'makchilarning izofasi tushurib qoldiriladi⁴⁶.

m: بابام رو کرسی نشسته بود. - *Dadam stulning ustida o'tirgan edi.*(J.A.J.F.34)

Gapning muloqot tezligini oshirish yoki soddalashtirish uchun ko'makchilar umuman tushurib qoldirilishi odatda og'zaki tilda ko'p uchraydigan hodisadir.

m: درخانه کسی نیست. aslida, کسی خونه نیس.

Shuningdek izofali ko'makchilarning vazifasi haqida marhum ustozimiz M.Abdusamatov quyidagi fikrni bildiradilar: "Agar asosiy ko'makchilar gapda biror predmetning o'rni yoki yo'nalishini ko'rsatsa, izofali ko'makchilar, shu o'rin yoki yo'nalish predmetning qaysi tomoniga qaratilganligini bildiradi, izofali ko'makchilar o'rin yoki yo'nalish ma'nolarini bildirganlarida, o'rin va yo'nalish

ژیلبرلازار. دستور زبان فارسی معاصر. انتشارات هرمس با همکاری مرکز بین المللی گفتگوی تمدن‌ها. چاپ اول. تهران. ۱۳۸۴ص: ۱۰۲. ⁴⁶

ma'nolarini anglatuvchi asosiy ko'makchilar tushib qolishi ham mumkin, ularning ma'nolari fe'lning ma'nosidan ham kelib chiqaveradi.”⁴⁷

فرّاش مدرسه دوید(به) سمت در مدرسه. m:

Maktab farroshi maktab eshigi tomon(ga) yugurdi.(J.O.A.G.F.35)

XULOSA

1.Izofali ko'makchilarning funksional xususiyatlari, ularning gap tarkibidagi sintaktik-semantik vazifasi, nutqimizdagi ahamiyati umuman olganda ularning iste'moldagi mavqei va ishlatilishi borasida tadqiqotimiz davomida ko'rib chiqqan ilmiy materiallar va manbalar asosida quyidagi xulosaga keldik.

Otdan yasalgan ko'makchilar gapda sintaktik ma'noni bog'lashga xizmat qiladi, ya'ni kelishiklarning vazifasini bajaradi, bu holat nafaqat fors tilida balki, o'zbek, rus va Yevropa tillarida ham (funksional ko'makchilar⁴⁸ yoki, ot ko'makchilar⁴⁹ deyilishi) kuzatilishi mumkin.

2.Otdan yasalgan ko'makchilarning iste'molda qo'llanilishining darajasi sof ko'makchilardan kam emas, chunki, ismiy ko'makchilarning ma'no doirasi sof ko'makchilardan ko'ra kengroq, masalan: “به”, “در”, “با”, “از” doim “ga”, “da”, “bilan”, “dan” kabi bir ma'no anglatishga xizmat qilsa, “روی” - “ustida”, “yuzida” “لای” - “ichida”, “o'rtasida”, “orasida”, “لغّب” - “yonida”, “oldida”, “yaqinida” ma'nolarini anglatadi ya'ni, ismiy ko'makchilarning har birida birdan ortiq ma'no borligi hisobiga ulardan ham iste'molda keng foydalaniladi. Chunki ular nutq tezligi va ravonligini ta'minlaydi.

⁴⁷ Abdusamatov M. Fors tili.Sharq nashriyoti.Toshkent.:2007.114-bet.

⁴⁸ Абдурахмонов Г. , Шукуров Ш. , Махмудов К. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси.Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти.Тошкент.:2008.284-бет.

⁴⁹ Абдурахмонов Х. , Шодмонов Э. , Рафийев А. Ўзбек тили.Ўқитувчи нашриёти.Тошкент.:1995.120-бет.

II.Otdan yasalgan ko'makchilarning tarkibiy xususiyatlari.

Tadqiqot davomida ko'makchi tranpozitsiyasi ot turkumidagi so'zlarga nisbatan, ravish turkumidagi so'zlarda ko'proq sodir bo'lishi ma'lum bo'ldi, quyida keltiriladigan namunalar bunga misol bo'ladi.

2.1.Otdan yasalgan ko'makchilar.

“ot→ko'makchi” modelida

بغل - yonida, oldida, yaqinida

بابام حتّی اجازه ندادکه ما را بغل گلدانها سوار کنند.

Dadam bizni hattoki guldonlarni orasiga kirishimizga ham ruxsat bermasdi.(J.A.G.F.13)

(پای) - ostida, tagida, yonida

خوبیش این بودکه چفت پای در بود، نه مثل اتاق عموم ان بالا.

Shunisi yaxshi bo'lgandiki, zulfi eshikning pastida edi , amakimning xonasiga o'xshab tepada emas.(J.A.G.F.19)

سر - tomonga, vaqti(da)ga

درست وقتی که بابام سر حوض وضو می گرفت یک تگه کاه گل از دنبال کفترها انداخته بود.

Ayni, dadam hovuz(bo'yi) da tahorat olayotgan payt, kabutarlarni orqasidan bir kesak kelib tushdi.(J.A.J.F.32)

سمت - tomoni(da)ga, tarafi(da)ga

و آن وقت از آفتاب که به سمت سایه می دویدی، یا از به طرف آفتاب، باز هم گلدسته ها توی

چشمت بود.

Quyoshdan soya tomonga yugursang(ham), yoki quyoshga, shunda ham (maschid) minoralari ko'zingga tushaveradi.(J.A.G.F.11)

(لاپلا) لای - ichi(da)ga, o'rtasi(da)ga, orasi(da)ga

توی پیاده رو دویدم و لای مردم قایم شدم.

Piyodalar yo'lchasiga yugurdim va odamlarning orasiga yashirindim.(J.A.B.M.26)

(لبه) - yoqasi(da)ga, labi(da)ga,

اصغر نشست لب پاشوره و پایش را یکهو کرد توی آب.

Asqar hovuzning labiga o'tirdida birdaniga oyog'ini suvga tiqdi.(J.A.G.F.29)

واسه - evaziga, uchun

اما واسه ی چه غصّه می خوری؟

Lekin sen nima uchun kuyinyapsan?(J.A.L.S.51)

2.2.Ravish va boshqa so'z turkumlaridan yasalgan ko'makchilar

“ravish→ko'makchi” modelida

اطراف - tevaragida, atrofida

اودر اطراف این مسأله فکر کند.

U ushbu masala atrofida(xususida) fikr yuritayotgan edi.(J.A.J.F.35)

بیرون - tashqarisi(da)ga, tashqi tomonida

هوا ی خنکی را که از درونش به بیرون می تابید فرو بردم.

Ichkarisidan tashqariga aylanayotgan sovuq havoni yutdim.(J.A.N.M.102)

بین - orasida, o'rtasida

مدتی گریه کردم و بین خواب و بیداری بودم که خواهرم آمد بالا و صدایم کرد.

Uyqu va bedorlik orasida(uyqu aralash) biroz yig'labman, opam yuqoriga ko'tarildi va meni chaqirdi.(J.A.G.76)

پیش - oldiga, yoni(da)ga

به خانه که رسیدم عموم رفت پیش بابام.

Xonaga kelsam, amakim dadamning yoniga ketgan ekan.(J.A.J.F.41)

(پهلوی) - oldiga, yoni(da)ga

من جواز بابامرا می بردم پهلوی عموم.

Men dadamning pasportini amakimning oldiga olib borardim.(J.A.J.F.40)

پی - orqasidan, ketidan, tashqarisida, nari yog'ida, yuzasidan

اگر او پی کاری رفت و چند ساعتی دیرکرد، کسی به او پرخاش نکند.

Agar, u biror ish **yuzasidan** ketgan bo'lsa va kech qolsa, uni hech kim urushmaydi. (J.A.O.Q.132)

(توی) - ichi(da)ga

وازش کن، بخون، ببینم **توی** این مدرسه چیزی هم بهتون یاد میدن یا نه؟

Ochib o'qichi, ko'raman, o'zi maktab(ichi)da sizlarga biror narsa o'rgatishyaptimikan? (J.A.J.F.34)

ته - ostida, tagida

هر دفعه می داد سر مرا هم مثل خودش از **ته** تیغ می انداختند.

Har gal meni boshimni ham xuddi o'zinikidek ustarada tagidan qirdirardi. (J.A.J.F.45)

(دنباله) - orqasidan, ketidan

دررا باز کردم، یک صاحب منصب بود **دنبالش** یک زن سرواز بود.

Eshikni ochdim, bir amaldor va uning orqasida bir boshi ochiq qiz ekan. (J.A.J.F.45)

دور - tevaragida, atrofida

کم کم یکی دونهفرمانت شده بودند و **دور** آن دو جمع می شدند.

Sekin-sekin bir ikki kishi e'tibor berib, u ikkalasini atrofida to'planishdi. (J.A.S.14)

زیر - osti(da)ga, usti(da)ga

بغچه خودرا **زیر** بغل زده بود و عباراً به سر کشیده بود.

Buxchasini qo'ltig'ini ostiga qistirib oldi va a'bosini boshiga tashlab oldi. (J.A.V.35)

(سو) - tomoni(da)ga, tarafi(da)ga

او سلانه سلانه به سوی حمام می رفت.

U sallona-sallona hammom tomonga ketardi. (J.A.V.35)

ضمن - yonida, oldida, huzurida, qoshida, vaqtida

یا وقتی **ضمن** سریدن، زمین می خوردی و همان جور درازکش داشتی خستگی در می کردی.

Yoki uchayotgan vaqtingda yerga yiqilib tushsang, charchog'ingni chiqarish uchun o'shanday cho'zilib yotaverarding.(J.A.G.F.12)

طرف - tomoni(da)ga, tarafi(da)ga, yoni(da)ga

مگه این روزها همیشه اصلا طرف کمپسری رفت؟

Shu kunlarda komissariyat tomonga borib bo'larkanmi?(J.A.J.F.44)

طول - bo'ylab, yoqalab

ایستادم و دو سه بار طول مهتابی را قدم زدم.

To'xtab qoldim va ikki uch qadam yorug'lik bo'ylab yurdim.(J.A.D.K.115)

کنار - yoqasi(da)ga, labi(da)ga

از کنار حوض که می گذشتم ماهی ها ملچ ملچ می کردند.

Hovuzni bo'yidan qaytaversam baliqlar (nimagadir) chalp-chulp qilishardi.(J.A.J.F.35)

مقابل - qarshisi(da)ga, ro'parasi(da)ga, o'rniga, evaziga

در سمت مقابل کوچه-وبه روی تل خا کروه-دری باز شد.

Ko'chaning ro'parasidagi tomonda da bir eshik ochiq edi.(J.A.L.S.43)

میان - o'rtasi(da), orasi(da)ga

دو سه ثانیه خود را در میان آب نگه داشت.

Ikki-uch soniya suvning o'rtasida o'zini tomosha qilib turdi.(J.A.V.31)

نزدیک - yonida, oldida, yaqinida

عین گنبد سیّد نصرالدین که نزدیک خانۀ اولی مان بود و من رفتم پشت بام.

Ana shu Sayyid Nasriddin gumbazi bizni eski uyimizning yaqinida edi.(J.A.G.F.12)

2.3.Gibrid/ham ot ham ravish turkumiga oid bo'lgan so'zlardan

yasalgan izofali ko'makchilar.("ot/ravish→ko'makchi")

بالا(ی) - yuqorisida, tepasida, ustida

پدرش یک ترکه از درخت کنده بود و بالای سرش ایستاده بود.

Otasi daraxtdan bir shox(tayoq) sindirib olgan va uni boshini tepasiga turib olgan edi.(J.A.E.H.155)

پشت - orqasida

یک مرد عینکی پشت میز نشسته بود که سلام علیک می کردند.

Bir ko'zoynakli kishi stolda o'tirgan edi va salom-alik qilshayotgandi.(J.A.G.F.13)

(جلوی) - labi(da)ga

هیچ کودام ما خرات نداشتیم شبها از خلوش رد بشویم.

Hech birimiz tunda uning oldidan o'tishga jur'at etolmasdik.(J.A.G.F.21)

دم - yonida, oldida, yaqinida

دم در حخره یک خورده پابه پاکردم و دور خودم چرخیدم.

Hujra eshigi oldida bir muddat og'irligimni u oyog'imdan bu oyog'imga o'tkazdim so'ng atrofga qaradim. (J.A.J.F.22)

درون - ichi(da)ga

تاریکی درون چشمش پر از قرمزی بود.

Ko'zining ichidagi qorasi qip-qizil bo'lib ketgan edi.(J.A.Z.G.69)

روی - usti(da)ga, yuzi(da)ga

یک چگه آب از دستش روی دستم افتاد که چندشم شد.

Bir tomchi suv qo'lidan qo'limni ustiga tomgan edi, etim junjikib ketdi. (J.A.J.F.33)

(روی) - ro'parasi(da)ga, qarshisi(da)ga

گنبد سید نصرالدین سبزو برآق روی خانه مان بود.

Ko'm-ko'k va moviy Sayyid Nasriddin gumbazi uyimizning ro'parasida edi.(J.A.G.F.14)

Mustaqil so'z turkumlari(ot, ravish, sifat) transpozitsiya natijasida ko'makchiga o'tganda albatta mustaqil ma'nosidan kelib chiqadi.

2.4.Sof ko'makchilar bilan birgalikda ishlatiluvchi izofali ko'makchilar

a)Sof ko'makchilar bilan prepozitiv aloqaga kirishuvchi izofali ko'makchilar

Sof ko'makchi "از" bilan birga qo'shilib keluvchi ismiy ko'makchilar

از بعد - dan so'ng, dan keyin

بعد از ظهري بود و هوا آفتابي بود و همان گلدسته ها چشممان بودند.

Tushdan keyin edi va havo quyoshli edi, shunda ham guldastalar ko'zimizga ko'rinib turardi.(J.A.G.F.23)

از پيش - dan oldin

آب سردی که پيش از خوابیدن آشامیده بودم به بدنم عرق نشانده بود.

Uxlashdan oldin sovuq suv ichgan edim, butun tanamdan sovuq ter chiqib ketdi.(J.A.D.K.111)

از پس - dan so'ng, dan keyin

زیره چی پس از این که بیدار شده بود.

Shundan so'ng Zirechi uyg'onib ketdi.(J.A.O.Q.129)

از غير - dan tashqari

یادم است، آن روز غير از خودش یک امریکای دیگر هم باهانش بود.

Esimda o'sha kun, undan tashqari bir amerikalik ham ular bilan birga edi.(J.A.Sh.A.93)

از قبل - dan oldin

پدرم قبل از این برود به شهرقم.

Dadam undan oldin Qum shahriga boradi.(J.A.J.F.49)

b)Sof ko'makchilar bilan postpozitiv aloqaga kirishuvchi izofali ko'makchilar

Sof ko'makchi "به" bilan birga qo'shilib keluvchi ismiy ko'makchilar

(به جای) - o'rniga, evaziga

شوفور زیر لب غرغری کرد و ساکت شد و به جای من شوفور جواب داد.

Haydovchi nimadir deb to'ng'illadida jimib qoldi (keyin) meni o'rnimga(o'zi) javob berdi.(J.A.N.M.102)

o'rniga, evaziga, uchun - به خاطر

او می گفت ، شبها اورا خیلی اذیت میکرداند و او به خاطر همین اذیت هاشان بوده است که از دست شان فرار کرده است.

U aytardiki, tunlari juda azoblanarkan va mana shu azoblar evaziga ulardan qochib qutulgan ekan.(J.A.A.A.195)

to'g'risiga, - به خصوص

من به خصوص از گریه اش خوشم می آمد که بی صدا بود.

Men uning unsiz yig'lashini yoqtirardim.(J.A.X.A.103)

sababli, tufayli, natijasida, uchun - به علت

اصلاً شاید به علت همین خانه کوچک بود که مرا گاشتند مدرسه.

Balki, meni aslida, ana shu kichik xonani deb(sabab bo'lib) maktabga qo'ygan bo'lishsa kerak.(J.A.G.F.20)

orqali, vositasida, bilan - به وسیله ی

هفت جلد کتاب فارسی که می بایست به وسیله ی اداره "الگمارک والمکوس" برای "وزارة انطباعات" بغداد فرستاده شود.

"وزارة انطباعات" ga yuborilish idorasi orqali Bog'dod "الگمارک والمکوس" kerak bo'lgan forsha kitob.(J.A.A.A.188)

Shuningdek, sof ko'makchi "در" bilan birga qo'shilib keluvchi

ismiy ko'makchilar

haqida, xususida, to'g'risida - در باره

دو کلمه در باره کفتر هایش پرسیدم.

Uning kabutarlari haqida so'radim.(J.A.J.F.33)

2.5.O'z va o'zlashgan ko'makchilar.

Ma'lumki,tilning lug'at tarkibini boyishida va rivojlanishida ichki lingvistik manbalar asosiy vosita hisoblanadi, lekin, shuni ham aytib o'tish kerakki hech bir

til o'ziga yaqin boshqa tillardan, mutlaq ajralgan holda taraqqiy eta olmaydi, shuning uchun har qanday til tarkibida, shu tilga yaqin va shu til bilan bevosita aloqada bo'luvchi tillar elementini uchrab turishi umumiy til qonuniyatining tabiiy hodisasi hisoblanadi. Fors tilida ham **o'z** va **o'zlashgan leksik qatlamlar** mavjud bo'lib, o'zlashgan so'zlar leksik qatlamining tarkibiy qismini Eron bilan turli xil aloqada bo'lgan boshqa mamlakatlar tilidan, turli davr, turli sabab va usullar orqali o'zlashgan so'zlar tashkil qiladi. Tadqiqotimiz davomida yordamchi so'z turkumlariga mansub bo'lgan ko'makchilar doirasida ham arab tilidan o'zlashgan bir qancha ko'makchilar mavjudligini guvohi bo'ldik. Ularni o'zlashganligiga sabab Eron Islom Respublikasining tarixi, siyosati(VII asrdagi Arab xalifaligini Islomni targ'ib qilib O'rta Osiyoga qilgan yurishlari, shuningdek, 1979-yilda bo'lib o'tgan Eron Islom Inqilobi natijasida Eronning "Islom Respublikasi" deb e'lon qilinishi) bilan bog'liqdir. Biz ko'makchilarning umumiy ahvoli, yasalishi, tarkibiy xususiyatlari, gapdagi mavqei, sintaktik-semantik vazifasi haqida yuqoridagi bo'limlarda gapirib o'tgan edik, bu bo'limda ularning kelib chiqishiga ko'ra qaysi leksik qatlamga mansubligi haqida so'z boradi. Lekin bu haqda ya'ni fors tilidagi ko'makchilarning kelib chiqishiga ko'ra qaysi qatlamga mansubligi haqida ma'lumot unchalik ko'p emas. Bu haqda, A.A.Dehxudo⁵⁰ o'zining "Lug'atnoma"sida iste'molda keng qo'llanuvchi va mashhur ko'makchilar deb quyidagilarni kiritadi: **پیش، نزدیک، در، اندر، نزد، تا، بر، با، از، جلو، میان، سو، زیر، روی، زبر، بهر، برای، پس، بیرون، اندرون، درون، تو، پی، درباره، دنبال، گرد، پهلوی، بالا، بسان، بدون، چون، بی، مانند، مگر، بکردار...**

Yuqoridagi misolda ko'rinib turibdiki A.A.Dehxudo aytgan iste'molda faol qo'llanuvchi ko'makchilar asosan tub leksik qatlamga mansub bo'lgan ko'makchilardir. Shuningdek, A.A.Dehxudo quyidagi ko'makchilarni arab tilidan

علی اکبر دهخدا. لغت نامه دهخدا. مؤسسه انتشارات و چاپ دانشگاه تهران. جلد ششم. چاپ اول از دوره جدید: پانیز. ص: ۷۷۷۳. ۱۳۷۲⁵⁰

o'zlashgan ko'makchildir deb ta'kidlaydi: ، قبل ، غير ، عقب va ushbu o'zlashma ko'makchilar iste'molda ancha faol qo'llaniladi

m: يادم است، آن روز غير از خودش يك امريكاي ديگر هم باهش بود.

Esimda o'sha kun, undan tashqari bir amerikalik ham ular bilan birga edi.(J.A.Sh.A.93)

m: زيره چي دست پاچه شد و به عقب برگشت.

Zirachi shoshib qoldi va orqaga qaytdi.(J.A.O.Q.124)

Shuningdek, H.Anvari va H.A.Giviy⁵¹ ushbu “إلا”, “إلى” so'zlarini fors tiliga arab tilidan o'zlashganligini aytib o'tishadi, qaysiki إلا so'zi va برای ko'makchilari bilan ma'nodosh.

m: همه آمدند إلا احمد. *Ahmaddan tashqari hamma keldi.*

إلى so'zi esa تا ko'makchisi bilan ma'nodosh ko'makchi bo'lib keladi.

m: Tehrondan Mashhadgacha... از تهران إلى مشهد...

Shuningdek, tadqiqot davomida yana bir qancha arab tilidan o'zlashgan izofali ko'makchilar iste'molda ancha faol qo'llanilishi ma'lum bo'ldi, ular quyidagilar:

a)Tarkibi bir so'zdan iborat bo'lgan arabiy ko'makchilar.

بعد - so'ng, keyin

بعد فهميدم که از تعرفه ی گمرکی صحبت می کردند.

Keyin, tushundim, bojxona tarifini gaplashishayotgan ekan.(J.A.A.A.189)

عقب - orqasi(dan)da, keti(dan)da,

راه افتادیم ، من از جلو و بابام از عقب.

Yo'lga tushdik, men oldindan, dadam esa orqadan.(J.A.G.F.20)

وسط - o'rtasi(da), orasi(da)ga

بچه ها جمع شده بودند وسط حیاط و گلدسته را به همدیگر نشان میدهند.

Bolalar hovli o'rtasida to'planib bir-birlariga guldastani

دکتر حسن انوری، دکتر حسن احمدی گیوی. دستور زبان فارسی. چاپ سوم. انتشارات فاطمی. تهران. ۱۳۸۵ ص ۲۶۰.⁵¹

ko'rsatishardi.(J.A.G.F.23)

b)Sof ko'makchilar bilan yuqorida keltirib o'tganimizdek postpozitiv va prepozitiv aloqaga kirishib murakkab ko'makchini hosil qiluvchi arabiy o'zlashmalar

to'g'risiga, - به خصوص

من به خصوص از گریه اش خوشم می آمد که بی صدا بود.

Men uning unsiz yig'lashini yoqtirardim.(J.A.X.A.103)

به علت - sababli, tufayli, natijasida, uchun

اصلاً شاید به علت همین خانه کوچک بود که مرا گاشتند مدرسه.

Balki, meni aslida, ana shu kichik xonani deb(sabab bo'lib) maktabga

qo'ygan bo'lishsa kerak. (J.A.G.F.20)

به وسیله ی - orqali, vositasida, bilan

هفت جلد کتاب فارسی که می بایست به وسیله ی اداره "الگمارک والمکوس" برای "وزارة انطباعات" بغداد فرستاده شود.

"وزارة انطباعات" ga yuborilishi idorasi orqali Bog'dod "الگمارک والمکوس" kerak bo'lgan forscha kitob.(J.A.A.A.188)

Shuningdek, tadqiqot davomida quyidagi ismiy ko'makchilar ham iste'molda qo'llanilishini guvohi bo'ldik, lekin ular yuqoridagi ko'makchilar singari faol qo'llanilmaydi.

اندرون - ichkarisida, ichida("ot/ravish→ko'makchi")

بر - yonida, oldida, yaqinida, tomonida("ot→ko'makchi")

برابر - qarshisi(da)ga("ravish→ko'makchi")

بهر - evaziga, o'rniga("ot→ko'makchi")

تحت - ostida, tagida, yonida("ravish→ko'makchi" arabiy)

حدود - yonida, oldida, yaqinida("ravish→ko'makchi" arabiy)

جهت - evaziga, o'rniga("ot→ko'makchi"arabiy)

نزد - yonida, oldida, yaqinida("ravish→ko'makchi")

غیر - boshqa, -dan tashqari - yonida, oldida,

yaqinida("ot→ko'makchi"arabiy)

قبل - oldi/qarshisi(da)ga, ilgari, dastlab("ravish→ko'makchi")

گرد - tevaragida, atrofida("ot→ko'makchi")

نسبت - ga ko'ra("ot→ko'makchi"arabiy)

به سبب - sababli, tufayli, natijasida, uchun("ot→ko'makchi"arabiy)

در باب - haqida("ot→ko'makchi"arabiy)

در قبل - oldi/qarshisi/da, qaraganda("ravish→ko'makchi")

در نتیجه - orqasida, natijasida, tufayli, sababli("ot→ko'makchi"arabiy)

XULOSA

Ushbu bob yuzasidan yuqorida keltirilgan va tadqiqot davomida yig'ilgan namunalar asosida quyidagicha xulosa chiqardik:

1.Sof ot turkumidan yasalgan izofali ko'makchilar unchalik katta qismni tashkil etmadi, sababi izofali ko'makchilarning vazifasidan kelib chiqadi, ya'ni ular gap bo'laklarining (ot)kesimga munosabatini shakllantiradi, bilamizki, fe'l gapda kesim vazifasini bajaradi, fe'lga esa otdan ko'ra ravish yaqinroq bo'ladi, shuning uchun ham ko'proq transpozitsiyaga otlardan ko'ra ravishlar uchraydi. "ot→ko'makchi" modelidagi ko'makchilar - 18% ni tashkil etdi.

2.Tadqiqot davomida ravish turkumidan yasalgan izofali ko'makchilar eng katta qismni tashkil etdi, ya'ni mustaqil so'z turkumlaridan ko'makchiga asosan, ravish turkumidagi so'zlar ko'chgan. "ravish→ko'makchi" modelidagi ko'makchilar - 50% ni tashkil etdi.

3.Gibrid/ham ot ham ravish turkumiga oid bo'lgan so'zlardan yasalgan izofali ko'makchilar, bu turdagi ko'makchilarning kelib chiqishiga sabab, oldingi qismlarda aytib o'tganimizdek, fors tilidagi so'z turkumlarning o'rtasidagi chegaraning qat'iy emasligi, ba'zi so'zlarning ham ravish, ham ot, ham ko'makchi, ham sifat turkumiga oid so'z sifatida kelishidir va ular ham unchalik katta qismni tashkil etmadi, "ot/ravish→ko'makchi" modelidagi ko'makchilar - 5% ni tashkil etdi.

4.Tadqiqot davomida sof ko'makchilar bilan qo'shilib keluvchi izofali ko'makchilar juda ham ko'p uchradi, "sodda ko'makchi + ot→ko'makchi" modelidagi ko'makchilar - 15% ni tashkil etdi.

5.Arabiy izofali ko'makchilar ham anchagina faol qo'llaniladi va ular 12% ni tashkil etdi.

Otlardan yasalgan izofali ko'makchilarning nisbatan ko'p qo'llanadigani quyidagilar: ... لب ، بغل ، پای ، لای ، سر ، سمت ، گرد ، واسه ، به علت ، در باره ، غیراز ...

Ushbu ko'makchilar iste'molda sof ko'makchilarning qo'llanilish darajasi bilan deyarli bir xilda, ya'ni faol qo'llaniladi. Chunki, otdan, ravishdan yasalgan umuman olganda, barcha izofali ko'makchilar iste'molda faol qo'llaniladi, sababi ularning har birida birdan ortiq ma'no bor, aynan, shu jihati bilan ular sodda ko'makchilardan ustundir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Ma'naviyat nashriyoti. Toshkent.:2008.
2. Karimov I.A. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.:“Ўзбекистон”,1997.
3. Абдурахмонов Г. , Шукуров Ш. , Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. Тошкент.:2008.
4. Абдурахмонов Ҳ. , Шодмонов Э. , Рафийев А. Ўзбек тили. Ўқитувчи нашриёти. Тошкент.:1995.
5. Abdusamatov M. Fors tili. Sharq nashriyoti. Toshkent.:2007.
6. Alimova X. So'z yasovchi transpozitsiya masalasiga doir (Dariy tili materiallari asosida)// Sharqshunoslar anjumani. Toshkent.2010.
7. Мухамедова Н.А. Классификация частей речи персидского языка в работах иранских грамматистов. Восточное языкознание. Сборник научных трудов. Издательство ТашГУ. Ташкент.:1992.
8. Мухамедова Н.А. Теоретическая грамматика персидского языка. Ташкент. ТашГИВ. 1994.
9. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti.:2009.
10. Пейсиков Л.С. Очерки по слово образованию персидского языка. Издательство Московского Университета. 1973.
11. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. Москва. «Восточная литература» РАН.:2001.
12. Рубинчик Ю.А. Персидский-русский словарь. «Русский язык» Москва.:1985.

13. Турдибойев Т.Х. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун номзодлик диссертация автореферати. Ленинобод вилояти Омор кичик корхонаси. Тошкент.: 1996.

14. Ҳамроев А. Ўзбек тилидан маърузалар тўплами. Тўлдирилган ва қайта ишланган еттинчи нашри. Низомий номидаги Тошкент Давлат Педагогика Университети. Тошкент.: 2006.

15. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти. Тошкент. 2002.

۱۶. جلال آل احمد . پنج داستان . چاپ پنجم . نشریات فردوس . تهران . ۱۳۷۸ .

۱۷. جلال آل احمد . سه تار . چاپ ششم . نشریات فردوس . تهران . ۱۳۷۴ .

۱۸. علی اکبر دهخدا لغت نامه دهخدا . چاپ اول . چاپ دانشگاه . تهران . ۱۳۷۲ .

۱۹. عبدالعظیم قریب . ملک الشعراء بهار . بدیع الزمان فروزانصر . جلال همای . رشید یاسمی .

دستور زبان فارسی . چاپخانه گلشن . چاپ یازدهم . تهران . ۱۳۷۴ .

۲۰. نجفعلی میرزایی . فرهنگ اصطلاحات . چاپخانه نهضت . چاپ دوم . قم . تابستان . ۱۳۷۴ .

۲۱. ژیلبر لازار . دستور زبان فارسی معاصر . انتشارات هرمس با همکاری مرکز بین المللی

گفتگوی تمدنها . چاپ اول . تهران . ۱۳۸۴ .

۲۲. دکتر حسن انوری، دکتر حسن احمدی گیوی . دستور زبان فارسی . چاپ سوم . انتشارات فاطمی .

تهران . ۱۳۸۵ .

۲۳. دکتر عبد الرسول حیام پور . دستور زبان فارسی . چاپخانه آرمان . چاپ هشتم . تهران .: ۱۳۷۲ .

۲۴ . شامل شناسایی حسن انزلی . دستور زبان فارسی . انتشارات انزلی . اورمیه . ۱۳۷۰ .

۲۵ . دکتر پرویز نائل خانلری . دستور زبان فارسی . چاپ بیستم . تهران : توس . ۱۳۸۴ .

- Jalāl Āle Ahmad “Guldastehā va Falak” - J.A.G.F.
- Jalāl Āle Ahmad “Ješn-e farxunde” - J.A.J.F.
- Jalāl Āle Ahmad “Šohar-e Āmrikāyi” - J.A.SH.O.
- Jalāl Āle Ahmad “Xunābe-ye anār” - J.A.X.A.
- Jalāl Āle Ahmad “Algumārak va Almakus” - J.A.A.A.
- Jalāl Āle Ahmad “Vasvās” - J.A.V.
- Jalāl Āle Ahmad “Gonah” - J.A.G.
- Jalāl Āle Ahmad “Nazdik-e Marzun ābād” - J.A.N.M.
- Jalāl Āle Ahmad “Ārzu-ye qodrat” - J.A.O.Q.
- Jalāl Āle Ahmad “Dahan kaji” - J.A.D.K.
- Jalāl Āle Ahmad “Setār” - J.A.S.
- Jalāl Āle Ahmad “Bache-ye mardom” - J.A.B.M.
- Jalāl Āle Ahmad “Lāk-e surati” - J.A.L.S.
- Jalāl Āle Ahmad “Zendegi ke gorixt” - J.A.Z.G.
- Jalāl Āle Ahmad “Ehtelāf-e hesāb” - J.A.E.H.